



## TA'LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA KREATIVLIK VA KOMPETENTLIK TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

**Soatova Mastona Odil qizi**

*Alfraganus unverseteti "Pedagogika" fakulteti*

*"Pedagogika va paxsalogiya" yo'nalishi 2-bosqich ta'labasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada pedagog kompetentligi orqali talabalarda kreativ g'oyalalarini shakillantirish va ularning ijodiy tassavurlarini kengaytirish masalalari yoritilgan bo'lib, ustoz va talaba hamkorligi ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirishda muxim omil sifatida olingan.*

**Kalitso'zlar:** *Intellekt, mustaqil fikirlash, ijodiylik, kreativliligi.*

Kompetentlik ( ingl „copetence” qobiliyat ) faoliyatda nazariy bilmlardan samarali foydalanish yuqori darajadagi kasbiy malaka mahorat va iqtidorni namoyon eta bilişdir. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutulmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi muloqatga kirishi raqiblari bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi noaniq vaziyatlarni bajarishda ziddiyatlarga to'la ma'limotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasini anglatadi. Har bir yosh avlod bilan ishlashda malakali pedagoglarning bilmlari yetarli bo'lishi zarur. Talabalarda kreativlikni oshirish va dunyoqarashini o'stirish malakali pedagogning vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogning bilmis zo'r yetarli bo'lsa talabalar bilan birgalikda ishlashni yo'lga qo'ya olsa talabalarining dunyoqarashi kengayib ustoz bilan bilmlarini almasha boshlaydi. Har bir pedagogning faoliyati yosh avlodni rivojlantirishda uning g'oyalalarini shakillantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik so'ziga to'xtaladigan bo'lsak u ingilzcha „create” so'zidan olingan bo'lib yaratish yaratuvchanlik degan ma'nolarni anglatadi. Shaxsga kreativlik nima uchun kerak, aslida har bitta insoning o'z fikri, dunyoqarashini, iqtidorini shakillantirish va yanada rivojlantirish uchun zarur hisoblanadi. Ustozlar bilan doimiy hamkorlikda bo'lish ularning bilmlaridan samarali foydalanish barcha talabalarining rivojlanishida muhum ahamiyatga ega. Bu borada Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali Ibin Sino "o'qituvchi o'z o'quvchilarining mayl, qiziqish, intilish, qobiliyat, istedodi va layoqatini aniqlamasdan turib uni ijodiy fikirlashga yo'naltira olmaydi" – degan fikrida aks etadi.

Yana bir buyuk yozuvchi, tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan va o'rta asrda Sharqining eng taniqli mutafakkirlaridan biri bo'lgan Jaloliddin Davoniyning kreativ g'oyaga tayangan asarlari juda ko'p bo'lib bulardan biri „Axloqi Jaloliy” deb ataladi. Bu asarda insoniy fazilatlardan aqliy qobiliyat va aqliy istedodni tarbiyalash uchun zuko zexinli, faxim farosatli ijodkor bo'lish va bilmlarni tez eslab qolish xususiyati lozimligini ta'kidlagan.



Shox va Shoir Zahridin Muhammad Bobur qarashlarida ham kretivlikka oid fikrlar mavjud bo'lib, u inson shaxsini taraqqiy ettirishda asosiy omil ijodkorlikni oshirishni tushunadi va undan o'z faoliyatida ham unumli foydalangan.

Ta'lism sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy qismini albatta, oliy ta'lism tizmidagi islohatlar tashkil etadi, xususan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limgan tizmli isloh qilishning ustuvor yonalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori kadirlar tayyorlash jarayonini sifatli jihatdan yangi bosqichga ko'tarish oliy ta'limgan modernizatsiya qilish ilg'or ta'lism soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limgan 2030 - yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohasidagi yangi islohatlar uchun debocha vazifasini bajarib kelmoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish raqobatdosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lism va ishlab chiqarish integratsiyasi singari vazifalar asos qilib olindi.

Kreativlik bu - ijodkorlik ijod degan ma'noni anglatadi, uning tag zaminida esa orginallik noadatiylik yotadi. Misol uchun: oddiy bir kitobni kitob dep qo'ymasdan, unga go'zal ta'riflar berish, kutobning chiroyini, qalin ekanligini, ichida buyuk olimlarning-mutafakirlarning olamshumul kashfiyotlari, qo'lyozmalari, oltinga teng bitiglari bor deb ta'riflash haqiqiy kreativ inson ta'rifi hisoblanadi. Atrofga boqsangiz har tomonidan inson ijodkorligini beqiyos va xayratlanarli namunasiga duch kelasiz, bularning barchasi - inson tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy ko'ringan kitob, musiqa, bino va hatto chiroqlar ham qachondir orzu va ta'savurda bo'lgan. Hattoki telefon ishlab chiqaruvchi komponiyalar mutahasislardan har kuni yangidan-yangi g'oyalilar so'rashmoqda. Mehnat bozorida kundan kunga kreativ fikrlovchi mutahasislarga talab oshib bormoqda ta'lism jarayonida o'qituvchi pedagoglarning noadatiy fikrlashini rivojlantirish dolzarb vazifalardan bir bo'lib qolmoqda.

### XULOSA

Ustoz va talaba birga hamkorlikda ishlashi, ta'lism sohasida rivojlanish, yuksalish va taraqqiyot kuchayadi. Talabalarning kreativ g'oyalari shakillanadi, dunyoqarashi kengayib o'z kasbining yetuk mutaxssis bo'lib yetishadi. Yurtimiz rivojlanishi o'sib kelyotgan har bir yosh avlodga bog'liq

talabalar qanchalik bimini puxta o'zlashtirsa, samarali yo'lida foydalansa yurtimiz bundanda gullab yashnaydi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lism to'g'irisidagi 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni.
- 2.Inoyatov U.I.Muslimov N.A. va boshq.



Pedagogika (nopedagogik oliy ta`lim muassasalari uchun). – T. TDPU 2023 y.  
3.Azizzxo`jaeva N.N. Pedagogik texnalogiya va ped mahorat. T. Nizomiy nomidagi  
TDPU, 2003 y.

**AXBOROT MANBALARI:**

- 4.www.tdpu.uz
- 5.www.pedagog.uz
- 6.www.ziyonet.uz
- 7.www.edu.Uz
- 8.tdpu-interanet.ped